(6). Luckin R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL Press.
(7). Marr B. (2023). Generative AI in Education: Opportunities, Challenges, and the Future. Forbes Education Series.
(8). Mishra P., Koehler M.J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
(9). Ng D.T.K., Leung J.K.L., Chu S K.W., Qiao M.S. (2021). Conceptualizing AI literacy: An exploratory review. Computers and Education: Artificial Intelligence, 2, 100041.
(10). Pellas N. (2023). The influence of sociodemographic factors on ChatGPT's awareness and adoption by higher education instructors. Information, 14(10), 514.
(11). Sallam M., Salim N.A., Barakat M., Al-Tammemi A.B. (2023). ChatGPT applications in medical, dental, pharmacy, and public health education: A descriptive study. JMIR Medical Education, 9, e48945.
(12). UNESCO (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
(13). Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), p. 39.

Shinibekov Qarjawbay Palbekovich (Nukus davlat Texnika universiteti o'qituvchisi)

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA E'TIBOR QARATISH – DAVR TALABI

Annotatsiya. *Maqolada axborot asrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davr talabiga aylanib borayotganligi ta'kidlab ko'rsatilgan. Gazetalardagi ta'lim-tarbiya bo'yicha bayon qilingan maqolalar mazmuni o'rganilgan. Axborot asrida medianing o'rni, faoliyati, mahorati haqida tadqiqotchilarning bildirgan fikrlari tayanch baza sifatida ko'rsatilgan. Ta'lim jarayonlari aniq faktlarda ochib berilgan gazeta maqolalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *media, ma'lumot, ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, onlayn, nashr, gazeta, ta'lim, rukn.*

СОСРЕДОТОЧЕНИЕ ВНИМАНИЯ НА ТРЕБОВАНИЯХ К ПЕРИОДУ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье подчеркивается, что в век информации акцент на воспитании молодежи становится требованием времени. Было изучено содержание статей в газетах, рассказывающих об образовании. В качестве опорной базы указываются высказывания исследователей о роли, деятельности, мастерстве СМИ в информационный век. Анализируются газетные статьи, в которых процессы воспитания раскрываются в конкретных фактах.*

Ключевые слова: *СМИ, информация, социальные сети, телевидение, онлайн, публикация, газета, образование, колонка.*

FOCUSING ON REQUIREMENTS FOR THE PERIOD OF YOUTH EDUCATION

Annotation. *The article emphasizes that in the information age, prioritizing the upbringing and education of young people has become a critical necessity. The study examines the content of newspaper articles dedicated to the field of education. The theoretical framework is based on researhers' insights into the role, functions, and professional expertise of the media in the digital era. Newspaper articles have been analyzed in which educational processes are revealed in specific facts.*

Key words: *media, information, social networks, television, online, publication, newspaper, education, column.*

Kirish. Axborot asrida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki xilma-xil ma'lumotlar, xorijdagi voqea-hodisalar, insonlar orasidagi munosabatlarni turli kanallar orqali olish imkoniyati paydo bo'ldi. Axborot yekazuvshi kanallarda biz faqat matnli, audio, video va foto xabarlardan tashkari gazetalarni ham onlayn shaklda o'qish imkoniyatiga egamiz. Oldingi vaqtlardagek kutubxona yoki tahririyatga borib emas, onlayn shaklda o'zimiz uchun qulay sharoitda, qulay payta bizga kerakli sonini topib o'qish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan, gazetalat axborot asrida o'z auditoriyasiga ma'lumot yekazishda keng imkoniyatlarni yaratib bera oldi. Bu–gazetalarning yutug'i. Gazeta jamiyatni, butun yosh avlodni tarbiyalashda o'rni beqiyos axborotlar manbayi. Ta'lim-tarbiya, adabiyat, milliy qadriyatlar, ulug' insonlar hayoti va ijodi bilan aloqadar intervyular orqali auditoriya qiziqarli ma'lumotlarga ega boladi. Maxsus ruknlarda berilayotgan bu jarayonlar yosh avlodni olg'a intilishdan to'xtamaslikka davat etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchilar ham mazkur mavzuda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini keng o'rganib kelmoqda: «Ommaviy axborot vositalari auditoriyaning ongiga, shuuriga bevosita tasir qiladi. Oddiy odamlarning dunyoqarashini, tushunchalarini shakllantiradi, qaysidir manoda manipulatsiya ham qila oladi. Tashqi olam haqida ma'lumotni media orqali olar ekanlar, uning ta'sirga

ham tushib qolish tabiyiy holdir. Shuning uchun milliy o‘ziga xoslik bo‘yicha tasavvurlar hosil bo‘lishda ham OAVning roli kattadir. İjtimoiy tarmoqlar, televideniya, onlayn nashrlarda berilgan ma’lumotlar, hujjatli filmlarda u yoki bu mamlakat madaniyati, tarixi, qadriyatlari yoritiladi. Ular auditoriyada shu mamlakat haqidagi tasavvurini shakllantiradi, ularning ongida millat qiyofasi gavdalanadi. Ahamiyatlisi, bu tushunchalar shaffof bo‘lishi ham mumkin yoki haqiqatga zid kelishi ham ehtimoldan holi emas. Chunki mediadagi ma’lumotlar qandaydir manfaatlar, subyektiv qarashlar asosida ham shakllangan bo‘lishi mumkin. Tasvirga tushirishdan tashqari haqiqatni bo‘rttirib ko‘rsatish, urg‘u berish yoki montaj qilish kabi jurnalistik ijod jarayonlari ham bor. Bu jarayonlardan uzoq bo‘lgan auditoriya ko‘rganlariga ishonadi va tayyorlangan materialni haqiqat sifatida qabul qiladi [1;95-b.]. Auditoriya mediada berilayotgan har bir malumotni kuzatadi va to‘liq o‘ziga kerakli bo‘lgan faktlarga ega bo‘ladi. Gazeta bilan auditoriya orasidagi munosibatga ham tadqiqotchilar atroflicha fikr bildirgan: «Xabarlar gazetalarning bosh sahifalarida o‘z aksini topadi. Bosh harflarda islohatlar, taraqqiyot odimlari, chora-tadbirlar, bayramlar, milliy qadriyatlar, xalqaro hamkorlik masalalari, xalqaro konventatsiyalar, ilm-fan, allomalar, kashfiyotlar va hududlar hayoti haqida ko‘plab ma’lumotlar bilan tanishamiz» [2;150-b.]. Jamiyatimizdagi barcha sohalar hayoti bilan gazetada berilayotgan maqolalar orqali ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatda yoshlar orasida ta’lim-tarbiya jarayoniga e’tibor qaratish zarurligi bo‘yisha maxsus monografiyalarda [3;4-b.], kitoblarda [5], o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda [6] ham keng to‘xtab o‘tilgan. Biz gazetalarda berilayotgan ruknlarni, maqolalarni o‘qib o‘rganganimizda yoshlar orasida ta’lim-tarbiya masalasiga e’tibor qaratish jarayonlari keng targ‘ib etilayotganligini kuzata oldik. Endi gazetalarda berilgan maxsus ruknlardagi maqolalar mazmuniga to‘xtab o‘tamiz. Ularning biri «Yangi O‘zbekiston» gazetasi. Mazkur gazetadagi qiziqarli mavzular, ruknlar, sarlavhalar gazetxonni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya jarayoni. Bu mavzu qator mahoratli jurnalistlar, mutaxassislar, olimlar, o‘qituvchilar muallifligida tayyorlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Gazeta sahifalarida yoshlar faoliyati, yutuqlari, ta’lim sohasiga oid reformalardagi yangiliklar muntazam beriladi. Masalan: «Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2025-yil 2-dekabr 249-sonida «İlm erkinligidan mosuvo jamiyat taraqqiyotdan ortda qoladi» mavzusidagi maqola Dilshod Rustamov, filologiya fanlari doktori muallifligida tayyorlangan. Maqolada qator faktlar aniq keltirib o‘tilgan: «Bugungi O‘zbekiston – bilimga tayanadigan, ilm-fanga asoslangan, yoshlarning intelektual salohiyatiga ishonadigan davlat. Konstitutsiyaning 51-moddasi esa bu yo‘ldagi strategik, fundamental huquqiy kafolatdir. Bu norma siyosiy tizimning ta’limga berayotgan yuksak e’tiboridan, ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi ustuvor o‘rni tan olinganidan dalolat. O‘zbekiston yangi intelektual bosqich sari dadil qadam qo‘ymoqda. Bu yo‘lda ta’lim tizimining har bir ishtirokchisi – ustoz-olim, talaba, tadqiqotchi – konstitutsiyaviy tamoyillarni amalda royobga chiqarishga ma’sul. Zero, taraqqiyot poydevori – ta’limdir. Ta’lim poydevori esa Konstitutsiya» deb keltirilgan.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2025-yil 2-dekabr 249-sonida «Bugunning o‘qituvchisi faqat o‘qitadi» mavzusidagi maqola Azima Yunusova, Qo‘shrabot tumanidagi 51-maktab o‘qituvchisining muallifligida tayyorlangan. Maktab o‘qituvchisi o‘z fikrlarini bildirgan: «O‘zim xalqaro toifali ingliz tili fani o‘qituvchisiman. Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi olis hududda, tuman markazidan 70 kilometr uzoqda joylashgan maktabda ingliz tilidan dars beryapman. Bunga Prezidentimizning 2021-yil 11-yanvardagi «Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»-gi qarori asos bo‘ldi. Mamlakat bo‘ylab men kabi olis hududlarga borib ishlayotgan hamkasblarim ko‘plab topiladi. Kimdir Andijondon Surxondaryoga, yana kimdir Xorazmdan Farg‘onaga borib, istalgan olis hududa qulay sharoitda, emin-erkin ishlayapti. Bu, avvalo, bo‘lmagan tajriba. U tufayli bilim ko‘rsatkichi past bo‘lgan, qizil toifaga kiritilgan qanchadan qancha maktabning sifat ko‘rsatkichi ortyapti». Bu maqola mazmuni ham o‘qituvchi fikrining aniq faktlarda bildirilgan fikrlaridan iborat. Bu fiklarda davlatimiz tomonidan ta’lim-tarbiyaga, ilm-bilimga qaratilayotgan e’tiborning natijasini ko‘rishimiz mumkin.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2025-yil 2-dekabr 249-sonida «Mulohaza» ruknida «İdrok va shuur bahsi sun’iy intellekt ustoz o‘rnini to‘la bosa oladimi?» sarlavhali maqolasi Qamariddin Komilov, texnika fanlari nomzodi, dotsent muallifligida tayyorlangan. Maqola mazmuni qator faktlar bilan boyitilgan: «İlm-fan ahli, faylasuflar va pedagoglar o‘rtasidagi qizg‘in bahs-munozaralar maydonida ikki qutb shakllangani kuzatilmoqda. Bir tomon texnologik determinizm g‘oyasiga tayanib, yaqin kelajakda «temir o‘qituvchilar» jonli muallimlarni to‘liq siqib chiqarishini bashorat qilsa, ikkinchi tomon inson omilining o‘rnini hech qanday algoritm bosa olmasligini qat’iy ta’kidlamoqda. Mazkur masala shunchaki texnik yangilik emas, balki millat kelajagi, ma’naviyat va insoniylik taqdiri bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy hodisa hisoblanadi». Demak, yoshlarni tarbiyalayotgan ustozlarning bilim berish bilan birga ma’naviyat, insoniylikka xos qadiriyatlarni ham targ‘ib qilishdagi o‘rni beqiyos.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2025-yil 5-dekabr 252-sonida «Ta’lim odimlari» ruknida «Toshkent tajribasi» kelajak kasblariga yo‘naltirilgan loyiha» sarlavhali maqola Munojat Mo‘minova «Yangi O‘zbekiston» muxbiri muallifligida tayyorlangan. Maqola mazmunida qator faktlar bayon qilingan: «Shu yil 15-may kuni maktab ta’limida amalga oshirilgan islohatlar va kelgusidagi asosiy vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, ta’sirlardan asrash ham dolzarb masalalardan ekanini ta’kidladi. Yig‘ilishda yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish masalasi ko‘rilib, «Barkamol avlod» maktablari, «Yoshlik» sport jamiyati va O‘quvchi yoshlar markazi yagona tizimga birlashtirilishi zarurligi belgilandi. Endi bu markazlar to‘liq ta’mirlanib, zamonaviy, kreativ yo‘nalishlar asosida jihozlanadi. Xorijiy tillar, sun’iy intelekt, dasturlash va animatsiya to‘garaklari ochiladi. – «Toshkent tajribasi» osonlikcha ishlab chiqilgani yo‘q. Buning uchun eng rivojlangan, ta’lim sifati yuqori davlatlarning o‘qitish tizimi tahlil qilindi. Mutaxassislarimiz o‘sha mamlakatlarga yuborildi. Jumladan, AQSH, Xitoy, Avstriya, Finlandiya, Rossiya ta’limida keyingi 5–10 yilda mehnat bozoriga qanday kasblar bo‘yicha o‘quvchilar tayyorlanayotgani o‘rganildi. Shuningdek, buning uchun qaysi fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish kerakligi ham tadqiq qilindi. İstanbuldagi innovatsion muhit, Sankt-Peterburgning ta’lim modelini o‘zlashtirishga harakat qildik. Umuman olganda, rivojlangan davlatlar poytaxtlaridagi maktab ta’limi va kelajak kasblari markazlari faoliyatidan kelib chiqib, xulosalarimizni umumlashtirdik. Shunda keyingi 10–20 yillikda eng ustuvor deb qaralayotgan yo‘nalish muhandislik texnologiyalari bo‘ldi. Ayni yo‘nalishning ildizi matematika, fizika fanlariga borib taqaladi». Mazkur maqolada respondentlar fikri ham keng, qator faktlar asosida berilgan.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2025-yil 10-dekabr, 255-sonida «Sun’iy intellekt» ruknida «Aqlli» texnologiyalardan aqlni ishlatib foydalanish kerak» sarlavhali maqola Charos Mirholiqova Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti dotsenti muallifligida tayyorlangan. Maqolaning kirish qismi kuzatuv metodi asosida bayon qilingan: «Kechki payt. Ko‘p qavatli uyning beshinchi qavatida 11-sinf o‘quvchisi Aziz deraza yonida o‘tiribdi. Yonida daftar, telefon. Yaqinda yakuniy imtihonlar, bundan tashqari, referat, taqdimot, ingliz tilidan vazifa… Aziz sabrsizlik bilan telefonga termiladi. Chat oynasiga savol yozadi, tugmani bosadi. Bir necha soniya ichida tartibli matn, misollar, xulosalar bilan «mukammal» referat paydo bo‘ldi. Aziz chuqur nafas oldi: zo‘r…Ustozlari qoyil qoladi… Bunday holatga bugun har qadamda, har soatda, har daqiqada duch kelishimiz mumkin. Chunki suniy intellekt (Sİ) bugun hayotimizga juda tez kirib kelmoqda. Endi savol: sun’iy intellekt yoshlar uchun imkoniyatmi, xatarmi yoki yangi sinov? Yaqinda davlatimiz rahbari ishtirokida poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro forumda qayd etilganidek, XXI asrda axborot texnologiyalari va raqamlashtirish har bir mamlakat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt endilikda faqat ayrim sohalar uchun emas, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, davlat boshqaruvi va kundalik yashash tarzimizga chuqur kirib kelayotgan fundamental omilga, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Biz sun’iy intellektni faqat texnologiya sifatida tasvirlashga odatlanganmiz, ya’ni «dastur», «servis», «robot» sifatida. Aslida, u bugungi yoshlar psixologiyasi, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy kelajagiga ta’sir qilayotgan jiddiy omildir. Bugungi o‘smir va talabalar qaror qabul qilishni ko‘pincha internet va Sİ izlash oynasidan boshlaydi. Qiziqishlarini algoritmlar taklif qilayotgan kontent orqali shakllantirmoqda. Dunyoqarashini raqamli maydonda, ko‘zga ko‘rinmas algoritmlar «filtridan» o‘tkazmoqda. Sun’iy intellekt o‘quvchi uchun bazi «o‘qituvchi», bazi «do‘st», ba;zan «maslahatchi», bazi esa «tayyor javoblar ombori»ga aylanmoqda. Agar biz bu jarayonni faqat texnik ko‘z bilan ko‘rsak, yutqizamiz. Agar unga psixolog tarbiyachi ko‘zi bilan qarasak, ham imkoniyatni, ham xavfni ko‘ra olamiz. Endi «yoshlar Sİdan unumli foydalanyapti», degan gapning o‘zi yetarli emas. Asl mohiyat «qanday foydalanyapti?» degan savolning javobida». Axborot asrida sun’iy intelektning ta’lim jarayoniga kirib kelish jarayonlari haqida atroflicha so‘z etilgan mazkur maqolada ayni haqiqat o‘z aksini topgan. Bu kabi ma’lumotlarga, hodisalarga har birimiz guvoh bo‘lmoqdamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, yoshlar ta’lim-tarbiyasi axborot asrida e’tibor talab qiladigan ahamiyatli mavzularning biriga aylandi. Shuning uchun ko‘plab gazeta o‘quvchisini o‘ziga jalb qilayotgan «Yangi O‘zbekiston» gazetasining maxsus ruknlarida qator maqolalar chop etilmoqda. Bu maqolalarning har biri dolzarb, yangi ma’lumotlar, aniq faktlarga asoslanganligi bilan diqqatga sazovor. Mazkur ruknlarda berilgan maqolalar har bir yoshni olg‘a intilishga, ilm-bilimni chuqur egallashga chorlaydi. Yurtimizdagi ta’lim-tarbiya jarayonlari gazeta materiallari asosida o‘rganish ham tadqiqotchilarimiz oldidagi vazifalarning biri sifatida ta’kidlab ko‘rsatishimizga bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Artiqova Y.A. Milliy identivlik va OAVning ijtimoiy ongga tasiri. “Ilm sarchashmalari”, 2025, 11, 95-bet.
(2). Kallibekova G.P. Muntazam ruknlar tili va uslubi. “Ilm sarchashmalari”, 2024, 7. 150-bet.

(3). Машарипова Т. Публицистика теориясының бир пүтин концепциясы: илимий-методологиялық анализ» (Қарақалпақстан баспасөзи материаллары мысалында). Т., “Mumtoz so‘z”, 2016, 246-bet.
(4). Kallibekova G.P. Tarawlıq gazeta materiallarının’ tili ha’m stillik o‘zgeshelikleri. No‘kis, “İlimpaz”, 2022, 168-bet.
(5). Худайқулов М. Журналистика ва публицистика. Тошкент, “Тафаккур”, 2011, 287-бет.
(6). Ахметова Л.С., Веревкин А.В., Лифанова Т.Ю., Шорохов Д.П. Медиаобразование Казахстана. Алма-ты, Қазақ университети, 2013, 254 с.

Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich (Samarqand davlat Chet tillar instituti o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” kafedrasi (PhD), dotsenti v.b.)

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA TA’LIM GRANTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayonida ta’lim grantlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida grant dasturlarining pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, metodik yangilanishlarni joriy etish hamda xalqaro tajribani integratsiya qilishdagi roli o‘rganildi. Natijalar ta’lim grantlari o‘qituvchilarning professional o‘sishi, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi va ta’lim sifati oshishiga sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy rivojlanish, ta’lim grantlari, ingliz tili o‘qituvchisi, pedagogik innovatsiya, malaka oshirish, xalqaro tajriba.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГРАНТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение образовательных грантов в профессиональном развитии преподавателей английского языка. В исследовании рассматривается роль грантовых программ в развитии педагогических компетенций, внедрении методических инноваций и интеграции международного опыта. Результаты показали, что образовательные гранты оказывают значительное влияние на профессиональный рост преподавателей, использование инновационных подходов и повышение качества образования.*

Ключевые слова: *профессиональное развитие, образовательные гранты, учитель английского языка, педагогические инновации, повышение квалификации, международный опыт.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF EDUCATIONAL GRANTS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF ENGLISH TEACHERS

Annotation. *This article analyzes the role and importance of educational grants in the professional development of English language teachers. The study examined the role of grant programs in developing pedagogical competencies, introducing methodological innovations, and integrating international experience. The results showed that educational grants have a significant impact on teachers’ professional growth, the use of innovative approaches, and improving the quality of education.*

Keywords: *professional development, educational grants, English teacher, pedagogical innovation, professional development, international experience.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi ta’lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kommunikativ, madaniyatlararo va raqamli kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi strategik ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim grantlari o‘qituvchilarning malakasini oshirish, xalqaro seminar va treninglarda ishtirok etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion metodikalarni joriy etish uchun muhim moliyaviy va institutsional resursga aylandi. Grant dasturlari o‘qituvchilarga xorijiy tajribani o‘rganish, akademik mobilitetda qatnashish va professional tarmoqlarga integratsiyalashish imkonini bermoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida ta’lim grantlarining o‘rni va samaradorligini aniqlash hamda ularning pedagogik jarayonga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi zamonaviy pedagogika va ta’lim menejmenti sohasidagi dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanish o‘qituvchining uzluksiz o‘zini takomillashtirishi, yangi metodlarni o‘zlashtiriši va refleksiv faoliyat olib borishi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Den (1999) kasbiy rivoylanishni o‘qituvchining butun professional faoliyati davomida amalga oshadigan uzluksiz o‘shish djarayoni sifatida izohlaydi. Uning fikricha, o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki doimiy ravishda o‘rganib boruvchi shaks bo‘lishi zarur.

Darling-Xammond va Richardson (2009) professional rivojlanish samaradorligi uzoq muddatli, amaliyotga yo‘naltirilgan va hamkorlikka asoslangan dasturlar orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, qisqa muddatli seminarlar o‘rniga tizimli va uzluksiz malaka oshirish dasturlari